

PROFICIENT IN PLANNING OF SUPPLY EVENTS STAFFING REQUIREMENTS

Ashurov Suxrob Abdushukurovich

Senior Lecturer of the Department of Material Supply of HX and MU

Abstract

This article is devoted to the development of the process of managing the educational process of higher education based on a creative approach to planning technical support activities.

Keywords: creativity, process, service, armed forces, requirements improvement, training, methods, use.

Introduction

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta'lim o'quv-tarbiya jarayonini texnik ta'minot tadbirlarini rejalashtirishda kreativ yondashuv asosida boshqarish jarayonini rivojlantirishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: texnik ta'minot, kreativ, jarayon, harbiy, talablar takomillashtirish, ta'lim, usullar, foydalanish.

Аннотация

Данная статья посвящена развитию процесса управления образовательным процессом высшей школы на основе творческого подхода к планированию деятельности по техническому обеспечению.

Ключевые слова: творчество, процесс, обслуживание, вооруженные силы, совершенствование требований, обучение, методы, использование.

Abstract

This article is devoted to the development of the process of managing the educational process of higher education based on a creative approach to planning technical support activities.

Keywords: creativity, process, service, armed forces, requirements improvement, training, methods, use.

Hozirgi kunda Respublikamizda, barcha sohalar qatorida oliy ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning sifat darajasini yaxshilash, xalqaro tajribalar asosida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, har bir oliy ta'lim muassasasini jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatishi, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, tinglovchilar va harbiy boshliqlarni, texnik ta'minot tadbirlarini rejalashtirishda muhim ahamiyatga ega malakali kadrlarni zamonaviy kasbiy bilimlari va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, va nostandart qarorlar qabul qilish, usullardan samarali foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Harbiy oliy ta'limda o'quv-tarbiya jarayonini dastlabki bosqichida texnik ta'minotni olib borish va rejalashtirish bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etishga qaratish, yangicha yondashuv asosida boshqarishga erishiladi, ta'lim jarayoni sub'ektlararo munosabatlarda muloqotli maqsadlarga erishish uchun kasbiy masalalarni hal etishda ijodiy fikrlash orqali real, nostandart metodlarini namoyon qiluvchi ijobiy xatti-harakatlarni tavsiflovchi qobiliyat tushuniladi.

Kreativlik kundalik professional faoliyatga ko'proq kiradi va nafaqat yakka tartibdagi korxonalarining, balki mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini rivojlantirish uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi.

Bu ma'lumotlar harbiy mutaxassislarining zamonaviy qarashlari, mashg'ulotlar tajribasi, mahalliy nizolar va urushlardagi harakatlar, shuningdek, jangovar harakatlarda texnik ta'minotni tashkilashtirish har xil sharoitlarni ta'siri va darajasini aniqlash shuningdek belgilash maqsadida, muddatida, jangovar harakatlarni rejalashtirish batafsil tashkil etiladigan muhokamalarda amalga oshiriladi. Jangini ta'minlayotgan birlashmalari va harbiy qismlar, mavjud kuchlar va vositalarning guruhi to'g'risida texnik ta'minot ma'lumotlari:

- Jangovar harakatlarda qo'shinlarining holati va vazifalari;
- Aloqa tizimining xususiyatlari;
- BP avtomatlashtirish vositalari majmuasining texnik ta'minot tizimi;
- Jangovar harakatlarda qo'shinlarini texnik ta'minot kuchlari va vositalarining tarkibi va imkoniyatlari. Jangovar harakatlarga tayyorgarlik ko'rish davomida, texnik ta'minotni rejalashtirilishida amalga oshirilayotgan tadbirlar ro'yxati va hajmi belgilanadi.

Unda rejalashtirish tezkorligiga qarab, texnik ta'minot baholanadi. Jangovar harakatlarga tayyorlanish va rejalashtirishning haqqoniylik ko'rsatkichi texnik ta'minotni amalga oshirish tadbirlarini hisobi yuritiladi. Rejalashtirish bu texnik ta'minotni oqilona ekanligini baholash uchun mo'ljallangan. Jangovar harakatlarda texnik ta'minotni rejalashtirish samaradorligini aniqlash, amalga oshirilib kelinmoqda.

Ushbu texnologiya hozirda o'zlari bilim olayotgan tinglovchilar uchun ham, o'qituvchilar uchun ham Jangovar harakatlarga tayyorgarlik ko'rish davomida, samarali bo'lib,

muammoli masalalarni chuqurroq o'rganish uchun xizmat qiladi, shuningdek, qisqa, ammo katta imkoniyatlar bilan o'qitiladigan materiallar sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Video darslar, ma'lumotni tushunishingizni tekshirish uchun qiziqarli maqolalar va interaktiv mashqlar orqali o'qitiladigan materiallar sifatini oshirish imkoniyatini yaratadi. Texnik ta'minotni rejalashtirishning foydali usul va jihatlarni takomillashtirish tadbirlarini to'g'ri tashkil qilish, o'z vaqtida amalga oshirish jangovar harakatlarni o'tkazishda qo'yilgan jangovar vazifalarni bajarishda muvafaqqiyatga yerishishning yeng asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Texnik ta'minotni rejalashtirishda kuch vositalardan foydalanish usullarini takomillashtirish alohida yo'nalishdagi vazifalarni bajarish uchun kerakli bo'lgan ta'mirlash va yevakuvatsiya qilish vositalari bilan to'liq butlangan bo'lishi shart. Hozirgacha texnik ta'minotni rejalashtirish samaradorligi va uning texnik ta'minotni tashkillashtirish samaradorligiga ta'sir yetuvchi omillar baholanmagan. Rejalashtirishda texnik ta'minotning murakkab va ko'p tomonlilik, sub'ektiv omillarning mavjudligi, qo'shinlar harakatlarining texnik ta'minot bo'yicha rejalashtirish nazariyasining asosiy qoydalarini yetarli tarzda ishlab chiqilmaganligi va boshqalar asosiy sabablaridir.

Muhit va har xil sharoitlarda aniq sifat bilan mudofaada texnik ta'minot vositalari texnik ta'minot savollarini hal yetishning barcha elementlarini to'liq ta'minlaydi. Shu tariqa, rejalashtirish samaradorligini baholash texnik ta'minot savollarini belgilash uchun zarur:

- Qo'shilmalarning doimiy ravishda o'sib borayotgan urush imkoniyatlarda texnik ta'minotni tashkillashtirish, zamonaviy qurolli to'qnashuv usullari va xususiyatiga doir zamonaviy qarashlarga muvofiq texniklar bilan butlashga molik rejalashtirishda;
- rejalashtirishni samaradorlik darajasini oshirish, texnik ta'minot samaradorligiga ijobiy ta'sirlari;
- mansabdor shaxslar tayyorgarlik darajasini va texnik ta'minot vazifalarini bajarishda rejalashtirish samaradorligini oshirish;
- rejalashtirishni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar samaradorligini ta'minlash, ularga maqsadli ta'sir yetish uchun jangovar harakatlarda qurollanish boshqarmasining texnik ta'minoti, tuzilmasi va ish usullari.
- jangovar harakatlarda qurollanish boshqarmasi mansabdor shaxslari ishlarining ish usullari.
- mansabdor shaxslarning tayyorgarlik darajasi va jangovar harakatlar olib borishda texnik ta'minot bo'linmalarini jihozlash vazifalarni hal yetish samaradorligiga ta'sirlari.

Hozirgi vaqtda biz yangi boshqaruv falsafasiga, yangi boshqaruv paradigmasiga o'tmoqdamiz. Bularning barchasi yangi, zamonaviy sharoitlarga mos keladigan, oliy harbiy ta'lim muassasalarining boshqaruv tizimlarini talab qiladi va harbiy rahbarning shaxsiy fazilatlariga qat'iy talablar qo'yadi.

Jamiyatda qolaversa harbiy tashkilotlarda, rahbarning o'zni benihoya muhim. Xalqni ezgu niyatlar bilan o'ziga ergashtira olgan rahbar hamisha odamlarning hurmat-e'tiborida

bo'ladi. Odamlarni bir-birlariga suyanib, tayanib bir-birlarini tushunib, muammolarini birgalashib bartaraf etishga da'vat qilish haqiqiy rahbarning noyob fazilati hisoblanadi.

Xulosa

Shu sababli texnik ta'minotni rejalashtirishni takomillashtirish va boshqarishda adolat mezoni zarur bo'lib, bu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun, undan katta mahorat malaka va tajriba talab qiladi. To'g'ri, aqlan rejalashtirish va qo'shilmalarni boshqarish maxsus ko'nikmalar, bilimlar, malakalardan xabardorlik hisoblanib, bu jarayonda katta va kichik bo'g'indagi komandirlar va boshliqlarning o'ziga bo'lgan ishonch, hissiy muvozanat, ustunlik, stressga chidamlilik, ijodkorlik, yutuqqa intilish, ishbilarmonlik ruhi, mas'uliyat, vazifani bajarishda ishonchlilik, mustaqillik, ijtimoiylik kabi hislatlarini namoyon etishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning,Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan O'R QK Akademiyasida Havfsizlik kengashining yig'ilishida so'zlagan nutqi. Toshkent, 2024.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 12 sentabrdagi PQ - 4447-sonli "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi" Nizomi.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan birinchi marta 2017 yil 22 dekabrda mamlakatimiz parlamenti – Oliy Majlisga taqdim etilgan Murojaatnomada mudofaa va xavfsizlik masalasidagi nutqi.
- 4.Mirziyoev Sh.M. Qurolli 2023 yil 10-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashining majlisidagi nutqi.
- 5.Satibaldiev A. Muloqotni tashkil etishning psixologik-pedagogik shartlari. O'quv-metodik qo'llanma: Toshkent OUQBYu, 2012.
- 6.Innovatsion ta'lim texnologiyalari Muslimov N.A.,Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015. – 81b.